

ELEKTRON HUKUMAT VA ELEKTRON BOSHQARUV**Gulsanam G‘apurova***Toshkent davlat yuridik universiteti**Biznes huquqi va sud himoyasi fakulteti 2-kurs talabasi*uzummarket346@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada «Elektron hukumat» va “elektron boshqaruv” tushunchalarining mohiyati, ularning o‘zaro farqli jihatlari hamda zamonaviy davlat boshqaruvidagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasining ushbu sohada qonunchilik bazasi va xalqaro reytinglardagi o‘rni ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, davlat xizmatlarini raqamlashtirishdan davlat boshqaruvining to‘liq raqamli ekotizimiga o‘tishning huquqiy muammolari va istiqbollari yoritilgan. Maqola yakunida milliy elektron boshqaruv tizimini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: elektron hukumat, elektron boshqaruv, raqamlashtirish, “Raqamli O‘zbekiston — 2030”, davlat xizmatlari, shaffoflik, BMT indeksi.

KIRISH

XXI asr - axborot va raqamli texnologiyalar asri sifatida davlat boshqaruvi arxitekturasini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda dunyo miqyosida davlat boshqaruvi “qog‘ozbozlik va yuzma-yuz muloqot” modelidan “tezkor, shaffof va raqamli” modelga o‘tmoqda. Bu jarayonda Elektron hukumat va uning yuqori bosqichi bo‘lgan Elektron boshqaruv tushunchalari markaziy o‘rin egallaydi.

Elektron boshqaruvning bugungi dunyodagi roli shunchaki texnik yangilanish yoki hujjat aylanishini raqamlashtirish bilan cheklanib qolmaydi; u davlat boshqaruvi paradigmasini o‘zgartiruvchi jiddiy ijtimoiy-siyosiy transformatsiyadir. Mazkur tizimning joriy etilishi davlat apparati faoliyatining samaradorligini quyidagi fundamental yo‘nalishlar orqali tubdan oshirmoqda. birinchidan, iqtisodiy samaradorlik va resurslarni optimallashtirish. Raqamli platformalar davlat xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi. Qog‘ozbozlikdan voz kechish, ma’lumotlarni qayta ishlash va tranzaksiya vaqtini tejash bevosita yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘shishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, elektron hukumat tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish orqali ham davlat, ham xususiy sektor uchun qo‘shimcha qiymat yaratadi²⁰⁷, ikkinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashning texnologik mexanizmi. Elektron boshqaruvning eng muhim yutug‘i — davlat

²⁰⁷ United Nations (2024). *E-Government Survey 2024: Accelerating Digital Transformation for Sustainable Development*. New York: United Nations Department of Economic and Social Affairs

xizmatchisi va fuqaro o‘rtasidagi bevosita muloqotni cheklashidir. Jarayonlarning avtomatlashtirilishi va “inson omili”ning minimallashtirilishi “maishiy korrupsiya” xavfini deyarli nolga tushiradi, bu esa boshqaruvda shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlaydi²⁰⁸, uchinchi dan, ijtimoiy inlyuzivlik va xizmatlarning ommabopligi. Masofaviy xizmat ko‘rsatish tizimi geografik to‘siqlarni bartaraf etadi. Bu, ayniqsa, chekka hududlarda istiqomat qiluvchi aholi va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun davlat xizmatlaridan foydalanishda teng imkoniyatlar yaratadi²⁰⁹. to‘rtinchidan, demokratik ishtirok va “Elektron demokratiya” elementlari. Zamonaviy elektron boshqaruv fuqarolarni shunchaki xizmat iste’molchisidan qarorlar qabul qilish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. “Ochiq budget” platformalari, onlayn petitsiyalar va qonun loyihalari muhokamasi davlat va xalq o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlab, ijtimoiy shartnomani yangi bosqichga olib chiqadi²¹⁰.

Biroq, ushbu amaliy yutuqlar bilan bir qatorda, nazariy va huquqiy bo‘shliqlar ham mavjud. Global tajriba shuni ko‘rsatadiki, ko‘p hollarda «Elektron hukumat» tushunchasi faqat xizmatlarni onlayn ko‘rsatish bilan cheklanib qolmoqda. Vaholanki, “Elektron boshqaruv” davlat apparatining ichki ish yuritishini, huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilishni va jamiyat nazoratini to‘liq raqamlashtirishni anglatadi. Bugungi kunda davlat organlarining idoralararo elektron hamkorligi (G2G), kiberxavfsizlik masalalari hamda aholining barcha qatlamlarida raqamli ko‘nikmalarni shakllantirish dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Mazkur ilmiy maqolaning asosiy maqsadi - elektron hukumatdan elektron boshqaruvga o‘tishning xalqaro standartlarini (BMT va IHTT tajribasi) o‘rganish, O‘zbekiston milliy qonunchiligidagi mavjud huquqiy to‘siqlarni tahlil qilish hamda davlat boshqaruvini yanada ochiq, demokratik va texnologik jihatdan mukammal qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

METODLAR

²⁰⁸ World Bank (2022). *GovTech Maturity Index: The State of Public Sector Digital Transformation*. Washington, DC: World Bank.

²⁰⁹ Scholl, H. J. (2021). *Digital Government: Foundations and Emerging Technologies*. Springer.

²¹⁰ OECD (2020). *The Digital Government Policy Framework: Six dimensions of a digital government*. OECD Public Governance Reviews.

Ushbu tadqiqot ishida elektron hukumat va elektron boshqaruv tizimlarining huquqiy va institutsional asoslarini har tomonlama tahlil qilish maqsadida kompleks va ko‘p bosqichli uslubiy yondashuv qo‘llaniladi.

Birinchi bosqichda, mavzuga oid fundamental ilmiy adabiyotlar²¹¹, xalqaro huquqiy hujjatlar va standartlar²¹² hamda raqamli transformatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini o‘rganish maqsadida tizimli adabiyotlar sharhi (Systematic Literature Review) amalga oshiriladi. Bu jarayon «Elektron hukumat» va “elektron boshqaruv” tushunchalarining evolyutsiyasini kuzatish hamda milliy qonunchilikdagi mavjud nazariy bo‘shliqlarni aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchi bosqichda, turli mamlakatlar va mintaqalarning (xususan, Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya va Estoniya kabi raqamlashtirishda yetakchi davlatlar) elektron boshqaruv modellarini baholash maqsadida qiyosiy-huquqiy tahlil o‘tkaziladi. Ushbu tahlil nafaqat qonun hujjatlarini, balki raqamli infratuzilmani tartibga solishning “eng yaxshi amaliyotlari” va potensial huquqiy uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi²¹³. Bu orqali O‘zbekistondagi raqamli islohotlarni xalqaro andozalar bilan solishtirish amalga oshiriladi²¹⁴.

Uchinchi bosqichda, elektron boshqaruvning amaliy samaradorligini va huquqiy to‘siqlarni aniqlash uchun sifat tadqiqot usullaridan foydalaniladi. Xususan, raqamli texnologiyalar sohasi ekspertlari, davlat organlarining AKT bo‘limi mutaxassisleri va huquqshunos olimlar o‘rtasida intervyu hamda so‘rovnomalar o‘tkaziladi²¹⁵. Shuningdek, mavjud qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarning amaliy qo‘llanishini yoritish maqsadida muayyan platformalar faoliyati bo‘yicha holat tadqiqatlari o‘tkaziladi²¹⁶.

²¹¹ Heeks, R. (2017). *Information and Communication Technology for Development (ICT4D)*. Routledge. pp. 110-145.

²¹² United Nations (2022). *E-Government Survey 2022: The Future of Digital Government*. United Nations Department of Economic and Social Affairs. pp. 25-50.

²¹³ Scholl, H. J. (2021). *Digital Government: Foundations and Emerging Technologies*. Springer. pp. 85-112.

²¹⁴ OECD (2020). *The Digital Government Policy Framework: Six dimensions of a digital government*. OECD Public Governance Reviews. <https://doi.org/10.1787/f3193d45-en>

²¹⁵ Janssen, M., & Helbig, N. (2018). *Innovating and Transforming Government: Strategic Design of Digital Government*. *Government Information Quarterly*, 35(4).

²¹⁶ Regulation.gov.uz (2024). OECD (2020). *The Digital Government Policy Framework: Six dimensions of a digital government*. OECD Public Governance Reviews. <https://doi.org/10.1787/f3193d45-en>

Ma'lumotlarni umumlashtirishda huquqiy tadqiqot uslublaridan — doktrinal tahlil, mantiqiy induksiya va deduksiya hamda statistik ma'lumotlarni interpretatsiya qilish usullaridan foydalaniladi. Bunday ko'p qirrali yondashuv elektron boshqaruvning huquqiy tabiati va uning jamiyatni demokratlashtirishdagi rolini xolis baholashga xizmat qiladi.

NATIJA

Ilmiy adabiyotlarda “Elektron hukumat” va “Elektron boshqaruv” tushunchalari ko'pincha sinonim sifatida ishlatilsa-da, ularning huquqiy va funksional ko'lami tubdan farq qiladi. Elektron hukumat — bu davlat organlari tomonidan axborot texnologiyalari yordamida xizmatlar ko'rsatishning institutsional mexanizmi bo'lib, u ko'proq samaradorlik va tranzaksiya tezligiga yo'naltirilgan²¹⁷. Bundan farqli o'laroq, Elektron boshqaruv - bu nafaqat xizmat ko'rsatish, balki davlatning strategik qarorlar qabul qilish jarayonida fuqarolik jamiyati bilan raqamli hamkorligini anglatadi. Ya'ni, E-government - bu nima (xizmat), E-governance esa qanday (boshqaruv uslubi) degan savolga javob beradi²¹⁸.

Xalqaro amaliyotda elektron boshqaruvni baholashning asosiy mezonini BMTning “Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi” (EGDI) hisoblanadi. Mazkur indeks uchta asosiy komponentni o'z ichiga oladi: onlayn xizmatlar ko'lami, telekommunikatsiya infratuzilmasi va inson kapitali²¹⁹. O'zbekiston Respublikasining “Raqamli O'zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizni “xizmat ko'rsatuvchi hukumat”dan “platforma-hukumat” (Government as a Platform) modeliga o'tkazishni nazarda tutadi. Bu modelda davlat barcha jarayonlarni o'zi boshqarmaydi, balki fuqarolar va biznes uchun qulay raqamli ekotizim yaratib beradi²²⁰.

Elektron boshqaruvning eng muhim huquqiy natijasi - davlat boshqaruvida shaffoflik (transparency) darajasining ortishidir. Raqamli platformalar davlat organlarining hisobdorligini ta'minlaydi va korrupsion holatlarni keltirib chiqaruvchi “yopiq eshiklar ortidagi qarorlar” amaliyotiga chek qo'yadi²²¹. Fuqarolarning “Ochiq budjet” yoki “Mening

²¹⁷ **Backus, M. (2001).** *E-Governance and Developing Countries*. IICD Research Brief No. 1. pp. 3-12.

²¹⁸ **Palvia, S. C. J., & Sharma, S. S. (2007).** *E-Government and E-Governance: Definitions and Framework*. SIGeGov. pp. 1-5.

²¹⁹ **United Nations (2024).** *E-Government Survey 2024: Accelerating Digital Transformation*. UN DESA.

²²⁰ **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.** “Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. 05.10.2020-yildagi PF-6079-son.

²²¹ **Bertot, J. C., Jaeger, P. T., & Grimes, J. M. (2010).** *Using ICTs to create a culture of transparency: E-government and social media as anti-corruption tools*. *Government Information Quarterly*, 27(3). pp. 264-271.

fikrim” kabi portallar orqali davlat boshqaruviga jalb etilishi jamiyatda davlat institutlariga bo‘lgan ishonch indeksini (Trust in Government) oshirishning fundamental omilidir²²².

O‘tkazilgan qiyosiy-huquqiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy dunyoda elektron hukumat tushunchasi “Government as a Platform” (GaaP) modeliga almashmoqda. Ushbu modelda davlat shunchaki xizmat ko‘rsatuvchi emas, balki ma’lumotlar va texnologik infratuzilmani taqdim etuvchi “raqamli ekotizim” vazifasini bajaradi²²³.

O‘zbekiston tajribasini Estoniya va Janubiy Koreya modellari bilan solishtirganimizda, bizda idoralararo ma’lumot almashinuvi (G2G) tizimida hali ham “Huquqiy siloslar”, ya’ni idoralarning ma’lumotlarni o‘zaro bo‘lishishga bo‘lgan huquqiy cheklovlari mavjudligi aniqlandi. Bu metodologiyada ta’kidlangan “yagona darcha” tamoyilining to‘liq ishlashiga to‘sqinlik qilmoqda. Tadqiqot natijasida aniqlanganidek, qonunchilikda “ma’lumotlarning bir marta berilishi” tamoyilini qat’iy belgilash zarur²²⁴.

Bizning fikrimizcha metodlarmizdagi “sifat tahlili” (intervyular) natijalari elektron boshqaruvning eng zaif nuqtasi sifatida “raqamli qarorlarning huquqiy kuchi” masalasini ko‘rsatdi. Masalan, “Ochiq budjet” yoki portallardagi ovoz berish natijalari bugungi kunda ko‘proq “tavsiyaviy” xarakterga ega.

Ilmiy jihatdan tahlil qilinganda, elektron boshqaruvni to‘laonli joriy etish uchun “Raqamli demokratiya” institutlarining huquqiy maqomini belgilash lozim. Xususan, elektron so‘rovnomalar va petitsiyalar natijalari davlat organlari uchun majburiy huquqiy oqibat tug‘dirishi kerak²²⁵. Bu esa metodologiyada qo‘yilgan davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash maqsadiga erishishning yagona yo‘lidir. Tadqiqotning kutilmagan natijalaridan biri – “Algoritmik boshqaruv” muammosidir. Bugungi kunda elektron hukumat tizimlarida sun’iy intellekt va algoritmlar xizmatlarni taqsimlashda foydalanilmoqda. Biroq, algoritmlar xatosi tufayli fuqarolarning huquqlari buzilsa, bunga kim huquqiy javobgar

²²² OECD (2021). *Government at a Glance 2021*. OECD Publishing, Paris.

²²³ O’Reilly, T. (2011). *Government as a Platform*. *Innovations: Technology, Governance, Globalization*, 6(1). pp. 13-40.

²²⁴ Estonian Information System Authority (2023). *The "Once-Only" Principle in Digital Government: Case of X-Road*.

²²⁵ Coleman, S., & Blumler, J. G. (2009). *The Internet and Democratic Citizenship: Theory, Practice and Policy*. Cambridge University Press.

bo‘lishi masalasi milliy qonunchilikda ochiq qolmoqda²²⁶. Metodologiyada o‘rganilgan kiberjinoyat va xavfsizlik masalalari nafaqat tashqi hujumlarni, balki ichki tizim algoritmlarining shaffofligini ham qamrab olishi lozim²²⁷. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, elektron hukumatdan elektron boshqaruvga o‘tish shunchaki texnologik yangilanish emas, balki davlat va jamiyat o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarning yangi demokratik bosqichidir. Tadqiqot davomida aniqlangan “huquqiy siloslar”, algoritmlar shaffofligi va raqamli qarorlarning legitimligi kabi muammolar sohani tartibga soluvchi qonunchilikni modernizatsiya qilishni taqozo etmoqda.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda elektron hukumatning texnik infratuzilmasi jadal shakllangan bo‘lsa-da, uning “Elektron boshqaruv” darajasiga o‘tishi uchun bir qator konseptual va huquqiy to‘siqlar mavjud. Asosiy muammo shundaki, hozirgi tizim fuqaroni faqat davlat xizmatlarining passiv iste‘molchisi sifatida ko‘radi. Vaholanki, zamonaviy raqamli davlatda fuqaro qarorlar qabul qilishda bevosita ishtirok etishi lozim. “Ochiq budget” kabi loyihalar bu boradagi birinchi qadam bo‘lsa-da, ularning natijalari ko‘pincha qonuniy majburiyat emas, balki “xayriya” yoki “tavsiya” shaklida talqin qilinmoqda. Bu esa raqamli demokratiyaning huquqiy kuchini zaiflashtiradi. Metodlar qismida o‘tkazilgan Estoniya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, elektron boshqaruvning asosi - idoralararo ishonchli ma‘lumot almashinuvidir. O‘zbekistonda esa vazirliklar o‘z ma‘lumotlar bazalarini “yopiq” saqlashga moyil. Bu “huquqiy siloslar” fuqarolardan bir xil ma‘lumotni bir necha bor so‘rashga sabab bo‘lmoqda. Tadqiqotda aniqlangan eng dolzarb masalalardan biri - sun‘iy intellekt va algoritmlar tomonidan qabul qilinadigan avtomatlashtirilgan qarorlar uchun javobgarlik masalasidir. Agar algoritmdagi xato tufayli fuqaro ijtimoiy yordamdan mahrum bo‘lsa yoki uning reytingi pasaysa, amaldagi qonunchilikda ushbu xatoni tuzatish va kompensatsiya to‘lash mexanizmlari yetarli darajada yoritilmagan.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, davlat boshqaruvini raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha quyidagi takliflar ilgari surimoqdamiz:

1. **“Raqamli ishtirok”ning huquqiy maqomini mustahkamlash:** Elektron petitsiyalar va onlayn so‘rovnomalar natijalarini davlat organlari uchun ma‘lum bir shartlar asosida (masalan, ovozlar soni kvorumga yetganda) majburiy huquqiy kuchga ega ekanligini qonun darajasida belgilash. Bu fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

²²⁶ Coleman, S., & Blumler, J. G. (2009). *The Internet and Democratic Citizenship: Theory, Practice and Policy*. Cambridge University Press. [4] Danaher, J. (2016). *The Threat of Algocracy: Reality, Resistance and Accommodation*. *Philosophy & Technology*, 29(3). pp. 245-267.

²²⁷ European Parliament (2023). *Ethics of Artificial Intelligence in Government: Legal Frameworks*. Brussels: EPRS.

2. **Faqat bir marta tamoyilini qonuniylashtirish:** Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risidagi qonunchilikka davlat organlari tomonidan fuqarodan tizimda mavjud bo‘lgan ma’lumotni qayta so‘rashni taqiqlovchi normani kiritish. Ma’lumot almashishdan bosh tortgan idora rahbariyatiga nisbatan ma’muriy javobgarlikni kuchaytirish.

3. **Algoritmik shaffoflik va “Raqamli Ombudsman” instituti:** Davlat boshqaruvida qo‘llaniladigan algoritmlarning ochiqligi va auditi tizimini joriy etish. Raqamli muhitda fuqarolarning huquqlari buzilganda (masalan, kiberhujum yoki algoritmik xato natijasida) ularni himoya qiluvchi ixtisoslashgan institutsional tuzilmani (Raqamli Ombudsman) tashkil etish.

4. **“Government as a Platform” (GaaP) modeliga to‘liq o‘tish:** Davlat faqat o‘z servislarini taqdim etib qolmasdan, xususiy sektor uchun ham xavfsiz “Application Programming Interface” (bu ikki yoki undan ortiq dasturning bir-biri bilan “muloqot” qilishi va ma’lumot almashishi uchun foydalanadigan qoidalar hamda protokollar to‘plamidir) ochib berishi lozim. Bu biznesga davlat ma’lumotlari asosida yangi ijtimoiy-iqtisodiy qiymat yaratish imkonini beradi.

XULOSA

Ushbu ilmiy tadqiqot davomida elektron hukumat va elektron boshqaruv tushunchalarining nazariy asoslari, ularning bir-biridan farqli jihatlari, xalqaro tajriba va O‘zbekiston Respublikasidagi joriy holat atroflicha tahlil qilindi. Olingan natijalar va muhokamalar asosida quyidagi umumlashtirilgan xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, tadqiqot davomida “Elektron hukumat” va “Elektron boshqaruv” tushunchalari o‘rtasidagi tub farq ilmiy jihatdan aniqlab berildi. Elektron hukumat (E-government) asosan davlat xizmatlarini raqamli kanallar orqali fuqarolarga yetkazib berish mexanizmi sifatida belgilanadi va samaradorlik hamda tranzaksiya tezligiga qaratilgan. Elektron boshqaruv (E-governance) esa bundan kengroq tushuncha bo‘lib, u nafaqat xizmat ko‘rsatishni, balki davlatning strategik qarorlar qabul qilish jarayonida fuqarolik jamiyati bilan raqamli hamkorligini, jamoatchilik nazoratini va demokratik ishtirokni ham o‘z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, elektron hukumat “nima ko‘rsatiladi?” degan savolga javob bersa, elektron boshqaruv “qanday boshqariladi?” degan fundamental savolga javob beradi. Ushbu kontseptual farqni anglash O‘zbekistondagi raqamli islohotlarni to‘g‘ri yo‘nalishda olib borish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida raqamli transformatsiyada sezilarli muvaffaqiyatlarga erishgan. Davlat xizmatlari portali (my.gov.uz), yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va boshqa raqamli platformalarning joriy etilishi fuqarolarning davlat xizmatlariga murojaat qilish jarayonini soddalashtirib, vaqt va moliyaviy xarajatlarni kamaytirdi. Biroq, bu yutuqlar asosan “elektron

hukumat” bosqichida qolmoqda. To’laqonli “elektron boshqaruv”ga o’tish uchun esa texnik infratuzilmani kengaytirishdan tashqari, davlat va fuqaro o’rtasidagi huquqiy munosabatlarni yangi asosda qayta qurish, ya’ni fuqaroni passiv xizmat iste’molchisidan aktiv boshqaruv ishtirokchisiga aylantiruvchi instituttsional islohotlar ham talab etiladi. BMT’ning “Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi” (EGDI) bo’yicha mamlakatimizning reyting ko’rsatkichlarini yanada oshirish uchun shu yo’nalishdagi kengroq islohotlarni amalga oshirish zarur.

Uchinchidan, qiyosiy-huquqiy tahlil natijalari shuni ko’rsatdiki, Estoniya va Janubiy Koreya tajribasi O’zbekiston uchun eng muhim o’rganish manbayi hisoblanadi. Estoniyaning “X-Road” tizimi va “bir marta berish” (once-only) tamoyili idoralararo ma’lumot almashinuvini tubdan inqilobiy tarzda o’zgartirib, fuqarolarning davlat organlariga qayta-qayta murojaat qilish zaruriyatini yo’qqa chiqargan. Janubiy Koreyaning “Government as a Platform” modeli esa davlatni shunchaki xizmat ko’rsatuvchi emas, balki barcha ijtimoiy-iqtisodiy aktorlar uchun raqamli ekotizim yaratuvchi kuchga aylantirgan. O’zbekistonda hali ham mavjud bo’lgan “huquqiy siloslar”, ya’ni vazirliklar o’rtasidagi ma’lumot almashish cheklovlari, ushbu xalqaro andozalarga erishishning asosiy to’sig’i bo’lib turibdi. Shu sababli, idoralararo ma’lumot almashinuvini huquqiy jihatdan majburiy qiluvchi normalarni qonunchilikka kiritish va texnik standartlarni xalqaro talablar darajasiga ko’tarish zarurdir.

To’rtinchidan, tadqiqotda aniqlangan eng muhim muammolardan biri — raqamli qarorlarning huquqiy kuchi masalasidir. Hozirgi kunda “Ochiq budjet”, “Mening fikrim” va boshqa onlayn platformalardagi fuqarolar ovozlari va petitsiyalari asosan “tavsiyaviy” maqomda bo’lib, davlat organlari ularni e’tiborsiz qoldirish huquqiga ega. Bu holat raqamli demokratiyaning mohiyatini bo’shatib qo’yadi va fuqarolarning ularga nisbatan ishonchini susaytiradi. Elektron ishtirokni haqiqiy demokratik mexanizmga aylantirish uchun muayyan miqdordagi qo’llab-quvvatlashga erishilgan petitsiyalar va onlayn so’rovnomalar natijalarini davlat organlari uchun majburiy ko’rib chiqiladigan huquqiy kuchga ega ekanligini qonun darajasida mustahkamlash zarur. Faqat shundagina fuqaro davlat boshqaruvining haqiqiy subyektiga aylanishi mumkin.

Beshinchidan, algoritmik boshqaruv va sun’iy intellektning davlat qarorlarida tobora ko’proq qo’llanilishi yangi huquqiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Agar davlat tizimidagi algoritm xatosi tufayli fuqaro ijtimoiy yordamdan mahrum bo’lsa yoki uning huquqlari poymol etilsa, kim va qanday tartibda javobgar bo’lishi masalasi O’zbekiston milliy qonunchiligida hali aniq tartibga solinmagan. Algoritmik shaffofligi, ularning auditini o’tkazish va algoritmik qarorlar ustidan shikoyat qilish mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Bu borada “Raqamli Ombudsman” institutini tashkil etish — raqamli muhitda fuqaro huquqlarini himoya qiluvchi ixtisoslashgan davlat organining yaratilishi — zamonaviy

ehtiyojdan kelib chiqqan muhim taklif sifatida ilgari surildi. Ushbu institut kiberxavfsizlik, algoritmik xatolar va ma'lumotlar himoyasi sohasidagi fuqaro shikoyatlarini ko'rib chiqish vakolati bilan jihozlanishi lozim.

Oltinchidan, raqamli tengsizlik (digital divide) muammosi ham alohida diqqatga sazovor. Elektron boshqaruv tizimlarining samarali ishlashi barcha fuqarolarning internet va raqamli qurilmalarga ega bo'lishini, shuningdek, raqamli savodxonlik ko'nikmalarini puxta o'zlashtirishini taqozo etadi. Biroq, O'zbekistonning qishloq va chekka hududlarida hali ham internet tezligi va qamrovi cheklangan, keksaroq avlod va kam ta'minlangan qatlamlarda esa raqamli qurilmalardan foydalanish imkoniyati past bo'lib qolmoqda. Bu holat elektron xizmatlardan foydalanishda ijtimoiy tengsizlikni yanada chuqurlashtirishi mumkin. Shu bois, "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirishda barcha hududlar va ijtimoiy qatlamlarni qamrab oluvchi inklyuziv yondashuv — arzon internet, raqamli savodxonlik dasturlari va mahalliy markazlar tarmog'ini kengaytirish — ustuvor vazifalar qatoriga kiritilishi shart.

Yettinchidan, shaffoflik va korrupsiyaga qarshi kurashda elektron boshqaruvning tutgan o'rni beqiyos ahamiyatga ega. Tadqiqot shuni tasdiqladi: raqamli platformalar davlat xizmatchisi bilan fuqaro o'rtasidagi bevosita muloqot imkoniyatini cheklash orqali "maishiy korrupsiya"ga barham beradi. Jarayonlarning avtomatlashtirilishi va qarorlarning onlayn tizimda qayd etilishi insoniy omil ta'sirini minimallashtiradi. Shu bilan birga, "Ochiq ma'lumotlar" (Open Data) siyosatini joriy etish — davlat organlari faoliyatiga oid ma'lumotlarni ommaga ochiq va mashinaga o'qiluvchi formatda e'lon qilish — jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, mustaqil jurnalistika va fuqarolik jamiyatining faolligini oshirishda hal qiluvchi omil bo'la oladi. Davlat organlarining byudjet xarajatlarini, tender natijalari va mulkiy ma'lumotlarni to'liq shaffof tarzda e'lon qilishi korrupsion xavfni tubdan kamaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, elektron hukumatdan elektron boshqaruvga o'tish — bu shunchaki texnik modernizatsiya emas, balki davlat va jamiyat o'rtasidagi huquqiy-ijtimoiy munosabatlarning yangi, demokratik bosqichi sifatida baholanishi lozim. Ushbu o'tish jarayoni uchta asosiy ustun — huquqiy islohotlar, texnik infratuzilma va fuqarolik madaniyatini rivojlantirish — birgalikda va tizimli tarzda amalga oshirilgandagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Tadqiqot davomida ilgari surilgan takliflar — "raqamli ishtirok"ni qonuniy mustahkamlash, "bir marta berish" tamoyilini joriy etish, algoritmik shaffoflikni ta'minlash va "Raqamli Ombudsman" institutini tashkil etish — O'zbekistonda chinakam demokratik raqamli boshqaruvni shakllantirishga hissa qo'shadigan amaliy yo'nalishlar sifatida tavsiya etiladi. Mamlakatimiz ushbu yo'nalishda izchil va qat'iyatli qadam tashlasa, yaqin kelajakda nafaqat mintaqada, balki jahon miqyosida ham raqamli boshqaruvning namunali davlati sifatida tan olinishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. United Nations (2024). E-Government Survey 2024: Accelerating Digital Transformation for Sustainable Development. New York: United Nations Department of Economic and Social Affairs.
2. World Bank (2022). GovTech Maturity Index: The State of Public Sector Digital Transformation. Washington, DC: World Bank.
3. Scholl, H. J. (2021). Digital Government: Foundations and Emerging Technologies. Springer.
4. OECD (2020). The Digital Government Policy Framework: Six dimensions of a digital government. OECD Public Governance Reviews.
5. Heeks, R. (2017). Information and Communication Technology for Development (ICT4D). Routledge. pp. 110-145.
6. United Nations (2022). E-Government Survey 2022: The Future of Digital Government. United Nations Department of Economic and Social Affairs. pp. 25-50.
7. Scholl, H. J. (2021). Digital Government: Foundations and Emerging Technologies. Springer. pp. 85-112.
8. OECD (2020). The Digital Government Policy Framework: Six dimensions of a digital government. OECD Public Governance Reviews. <https://doi.org/10.1787/f3193d45-en>
9. Janssen, M., & Helbig, N. (2018). Innovating and Transforming Government: Strategic Design of Digital Government. Government Information Quarterly, 35(4).
10. Regulation.gov.uz (2024). OECD (2020). The Digital Government Policy Framework: Six dimensions of a digital government. OECD Public Governance Reviews. <https://doi.org/10.1787/f3193d45-en>
11. Backus, M. (2001). E-Governance and Developing Countries. IICD Research Brief No. 1. pp. 3-12.
12. Palvia, S. C. J., & Sharma, S. S. (2007). E-Government and E-Governance: Definitions and Framework. SIGeGov. pp. 1-5.
13. United Nations (2024). E-Government Survey 2024: Accelerating Digital Transformation. UN DESA.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. 05.10.2020-yildagi PF-6079-son.
15. Bertot, J. C., Jaeger, P. T., & Grimes, J. M. (2010). Using ICTs to create a culture of transparency: E-government and social media as anti-corruption tools. Government Information Quarterly, 27(3). pp. 264-271.

16. OECD (2021). Government at a Glance 2021. OECD Publishing, Paris
17. O'Reilly, T. (2011). Government as a Platform. Innovations: Technology, Governance, Globalization, 6(1). pp. 13-40.
18. Estonian Information System Authority (2023). The "Once-Only" Principle in Digital Government: Case of X-Road.
19. Coleman, S., & Blumler, J. G. (2009). The Internet and Democratic Citizenship: Theory, Practice and Policy. Cambridge University Press.
20. Danaher, J. (2016). The Threat of Algocracy: Reality, Resistance and Accommodation. Philosophy & Technology, 29(3). pp. 245-267.
21. European Parliament (2023). Ethics of Artificial Intelligence in Government: Legal Frameworks. Brussels: EPRS.